XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 26-yanvar VII-21-13-4-0-K/26 Qashqadaryo viloyati

Viloyatda maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun toʻlov narxlari (tariflar)i toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bogʻliq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 4845-son qaroriga muvofiq hamda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasining 2026-yil 10-yanvardagi 01-4/109-sonli, Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 19-dekabrdagi 01-20-10/05-38/3322-sonli va Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 24-dekabrdagi 02/02-13076-sonli xatlarini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshligʻi v.v.b. D.Safarovning hisoboti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyatining *(Qarshi shahridan tashqari)* tuman (shahar)larida qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish, joylashtirish xizmatlari koʻrsatish boʻyicha narxlar (tariflar) ***ilovaga*** muvofiq maʼqullansin.

3. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflar belgilanganligini ommaviy axborot vositalari orqali aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar e’tiboriga yetkazish vazifasi topshirilsin.

4. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2024-yil 13-iyundagi VI-74-71-4-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov va viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasman qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

Kengash raisi **XUSHMURODOVA ISMIGUL BERDIMURODOVNA**

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 26-yanvardagi
VII-21-13-4-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyatining (Qarshi shahridan tashqari) tuman (shahar)larida qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish, joylashtirish xizmatlari koʻrsatish boʻyicha

NARXLARI (tariflari)

Hudud nomi	**Yangi tarif darajalari (soʻmda)**			
	Aholiga 1 (bir) kishi uchun bir oyda		**Yuridik shaxs (budjet va ulgurji tashkilotlar, korxona va muassasalar)dan 1 m^3 uchun**	
	QQS siz	12% QQS bilan	QQS siz	12% QQS bilan
Viloyatning (Qarshi shahridan tashqari) tuman (shahar)larida	**6 192**	**6 935**	**86 275**	**96 628**

Qoʻshimcha qiymat soligʻi stavkasida oʻzgarishlar boʻlgan taqdirda mazkur narxlar mos ravishda oʻzgaradi.